



O‘ZBEKISTONDA FINLYANDIYA TAJRIBASI ASOSIDA UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

Fayziyeva Kamola Fatxullayevna

Oriental universiteti “Ta’lim menejmenti” fakulteti magistranti

+999 99 760 73 76 [komolafayziyeva407@gmail.com](mailto:kamolafayziyeva407@gmail.com)

So‘nggi yillarda yurtimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi xalq ta’limi sohasida ham qator keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Shunday islohotlardan biri bu - xalq ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirishda rivojlangan va butun dunyo tomonidan tan olingan rivojlangan davlatlarning xalq ta’limi sohasidagi ilg‘or tajribalaridan foydalanish, ushbu davlatlar tajribasini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda joriy etish, xorijiy mutaxassislar bilan o‘zaro tajriba almashish kabilardir. Bugungi kunda qator davlatlarning ta’lim sohasidagi tajribalari, bosib o‘tgan yo‘llari muhokama qilinib, hozirda dunyoning ko‘zga ko‘ringan ta’lim expertlari tomonidan “dunyodagi eng yaxshi ta’lim tizimi” deb e’tirof etilayotgan Finlyandiya ta’lim tizimini O‘zbekistonda yo‘lga qo‘yish borasida qator ishlar boshlab yuborildi.

Har qanday xorijiy tajriba yoki tizim bo‘lsin, uni to‘lig‘icha ko‘chirib olish yoki amaliyotga joriy etish mumkin emas, albatta. Hozirda dunyoda eng yaxshilaridan biri deb e’tirof etilayotgan fin ta’lim tizimining ham yurtimizda joriy etilishida ba’zi bir muammolar yuzaga kelishini ko‘rish mumkin. Quyida ushbu farqli jihatlar haqida so‘z boradi.

Finlyandiya ta’lim tizimi butun dunyoga 2003-yilgi PISA natijalari e’lon qilingandan keyin mashhur bo‘ldi. Shu yilga PISA testlarida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha Finlyandiya yetakchilikni qo‘lga kiritgandi. To‘g‘ri, keyingi yillardagi PISA testlarida yetakchilikni boy bergan bo‘lsa-da, ammo hali hanuz dunyoning eng yaxshi ta’lim tizimiga ega davlat sifatida tan olinadi.

Quyida Finlyandiya ta’lim tizimiga xos bo‘lgan ba’zi bir ahamiyatli jihatlarni ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

➤ Finlyandiya bolalari ta’limni boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda kechroq boshlaydilar. Ular 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinshadi. “Bolalarni haddan ziyod erta maktabga berish ilmiy jihatdan foydali emasligi tasdiqlangan”, deyiladi fin tizimida;

➤ 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar kunduzgi bolalar bog‘chalariga qatnaydilar, ammo u yerda darslar o‘rniga ijodiy o‘yinlarga e’tibor berishadi;

➤ O‘qishning har 45-daqiqasida talabalar 15 daqiqa tanaffus qilib, turli o‘yinlar o‘ynashadi;

➤ Finlyandiyada majburiy ta’lim 9 yil davom etadi, o‘quvchilar 16 yoshdan o‘qishni tark etishlari mumkin. Ushbu g‘oya Finlyandiya talabalarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan;

➤ Finlyandiyada talabalar faqat 16 yoshida markazlashtirilgan imtihon (Milliy Test) dan o‘tishlari talab qilinadi;

➤ Finlyandiya talabalari rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o‘qiydilar (darslar 8-9 oralig‘ida boshlanib, kunduzgi 2 gacha yakunlanadi), shunga




qaramay juda yaxshi natijalar qayd etadilar. Finlyandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o‘qituvchilar va hatto talabalar o‘rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlik muvaffaqiyat kalitidir, deb hisoblashadi;

➤ Fin o‘qituvchilari dunyodagi eng malakali mutaxassislardir. Finlyandiyada o‘qituvchilikka bo‘lgan talablar juda yuqori;

➤ Finlyandiya o‘qituvchilari xuddi shifokorlar va yuristlar kabi maqomga ega. Ularing ijtimoiy mavqeisi ham juda yuqori;

➤ Fin o‘qituvchilarining bu qadar ulkan mavqega egaliklari o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan talabning yuqoriligi hamda malaka imtixonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlyandiyada ular o‘z o‘qituvchilarini doimiy ravishda baholash va baholab borish zaruratini sezmaydilar. Agar o‘qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o‘tadigan bo‘lsa, u bilan maktab direktorining o‘zi shug‘ullanib qo‘ya qoladi.

Finlyandiya ta’lim tizimi muvaffaqiyatining bosh omili sifatida quyidagilar sanaladi:



Finlyandiya tajribasini o‘rgangan ta’lim bo‘yicha mutaxassislar fin ta’lim muvaffaqiyatini yagona bir omilga bog‘liq deb hisoblashmaydi. Bu muvaffaqiyatning juda ko‘p omillari mavjud bo‘lib, mazkur omillarning yuzaga chiqishi va beka-u ko‘st ishlashi fin ta’lim tizimining bugungi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Finlyandiya ta’limining jozibador jihatlari juda ko‘p hamda qator mamlakatlar o‘z ta’lim tizimlarini tashkil etishda aynan fin tajribasining muvaffaqiyatli mexanizmlarini joriy qilishga harakat qilishmoqda. Shuningdek, yurtimizda ham fin ta’lim tizimini joriy etish



bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo jarayonda ba'zi muammolarning yuzaga kelishini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Fin ta'lim tizimini O'zbekistonda joriy qilishda yuzaga keladigan muammolarning dastlabkisi bu - demografik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bugungi kunda Finlyandiya maktabga qatnaydigan o'quvchilar soni 562.400 nafarni, o'qituvchilar soni esa qariyb 50.000 nafarni tashkil etadi, bu esa bizning ko'rsatkichlardan taxminan 12 barobarga kam degani. Bunday yuqori ko'rsatkichlar sinfdagi o'quvchilar soniga bevosita ta'sir o'tkazadi. Hozirgi kunda Finlyandiya bir sinfdagi 19-20 nafar o'quvchi ta'lim oladi va o'rtacha maktab 300 nafar o'quvchini o'z ichiga olishi mumkin. Yurtimizda esa ba'zi hududlarda o'quvchilar soni 35-40 nafarga yetadi. Bir sinfdagi o'quvchilar sonini bu darajada ko'pligi o'qituvchining har bir o'quvchiga individual yondashishiga, o'quvchiga qaratilgan ta'limning amalga oshirilishiga, darsni nazorat qilishni qiyinlashishiga sabab bo'ladi. O'tilgan dars yoki mavzuni har bir o'quvchiga yetkazish esa deyarli imkonsiz vazifaga aylanadi.

Ikkinchidan, mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda ta'lim sohasiga sarflashi mumkin bo'lgan mablag'lar orasidagi farq fin ta'lim tizimining yurtimizda joriy qilishda qator qiyinchiliklarni tug'diradi.

Uchinchidan, Finlyandiya va O'zbekiston turli madaniyat, an'ana va qadriyatlarga ega. Shuning uchun Finlyandiya modelini mahalliy sharoitga moslashtirish muhimdir. O'zbekiston Finlyandiya ta'lim tizimining o'z madaniyatiga taalluqli jihatlarini aniqlashi va zarur tuzatishlar kiritishi kerak.

To'rtinchidan, pedagog kadrlarni saralab olish va ularni tayyorlash jarayonidagi tafovutlar. Finlar birinchi navbatda maktablarni kichik jamiyatlarga aylantirishga harakat qildi va buni ta'minlash uchun uning quruvchilari — o'qituvchilarni tayyorlashga katta e'tibor qaratdi. O'qituvchilarni tayyorlash uchun uch yillik bakalavr va ikki yillik magistratura darajasidan iborat jami 5 yillik dastur joriy qilindi, o'qituvchi bo'lish uchun magistratura darajasiga ega bo'lish majburiy qilib qo'yildi. Pedagogika yo'nalishiga eng qiyin qabul joriy qilingan bo'lib, hujjat topshirganlarning 10 foizigina sinovdan o'ta oladi. Ya'ni bu qayerga topshirishni bilmaganidan topshirib kirib ketadigan yo'nalish emas, balki yuridik yoki iqtisodiy soha kabi eng nufuzli yo'nalishlardan biri. 30-40 yil davomida uzluksiz o'ta yuqori darajali o'qituvchilar tayyorlanishi natijasida mamlakatning barcha maktablari elita darajasidagi o'qituvchilar bilan to'ldi.

Yuqoridagi kabi tafovutlar va xorij tajribasini joriy etishdagi qiyinchiliklar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin.

Ta'lim tizimini rivojlantirishda biror bir rivojlangan davlatning muvaffaqiyatli tajribalarini yoki islohotlarni o'rganish hamda o'zlashtirish bosqichida davlatlar o'rtasidagi madaniy farqlar hamda milliy xususiyatlarni hisobga olish lozim sanaladi.